



*hokimligi
maksiabgacha va maktab ta'lifi
boshqarmasi*
*maksiabgacha va
maktab ta'lifi bo'limi tasarrufidagi
—umumi o'rta ta'lim maktabi
texnologiya fani o'qituvchisi
ning*
*20__-20__-o'quv yili uchun
“KASBIM-FAXRIM” NOMLI*

**TO'GARAK
HUJJATLARI**

To‘garak a‘zolari haqida ma’lumot

№	Familiya ismi va sharifi	Tug‘ilgan sanasi	Sinfি	Manzili (to‘liq)	Ota-onasi (Ismi sharifi)	Telefon (uy yoki mobil)	Izoh
1.							
2.							
3.							
4.							
5.							
6.							
7.							
8.							
9.							
10.							
11.							
12.							
13.							
14.							

15.							
16.							
17.							
18.							
19.							
20.							
21.							
22.							
23.							
24.							
25.							
26.							
27.							
28.							
29.							
30.							

O'tkazilgan xona _____

“

”To‘garak mashg‘ulotlar o‘tkazilish sanalari

To‘garak rahbari

“_____” To ‘garak mashg’ulotlar o’tkazilish sanalari To ‘garak rahbari _____

To 'garak rahbari _____

MMIBDO'

**20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan “Kasbim-faxrim” to‘garagining
ISH REJASI**

Nº	Yillik ish reja mavzulari	Soat	Sana	Izoh
1.	Xalq hunarmandlari tomonidan eksport va ichki bozor uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar			
2.	Xalq hunarmandlari tomonidan eksport va ichki bozor uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar			
3.	Xalq hunarmandchiligidagi foydalanilayotgan nodir materiallar, asbob-uskunalar			
4.	Xalq hunarmandchiligidagi foydalanilayotgan nodir materiallar, asbob-uskunalar			
5.	Hunarmandchilik mahsulotlarini tashqi shakli uzviyligi va yaxlitligi ta'minlanishiga ko'ra baholash			
6.	Hunarmandchilik mahsulotlarini tashqi shakli uzviyligi va yaxlitligi ta'minlanishiga ko'ra baholash			
7.	Kompozitsion yaxlitlik. Xalq hunarmandchiligidagi oid tanlangan bitta kasb-hunar turini tavsiflash			
8.	Kompozitsion yaxlitlik. Xalq hunarmandchiligidagi oid tanlangan bitta kasb-hunar turini tavsiflash			
9.	Xalq hunarmandchiligining tanlangan yo'nalishi bo'yicha zamonaviy dizayn talablari bilan uyg'unlashtirilgan mahsulot tayyorlash bo'yicha ish usullarini egallash			
10.	Loyihalash bosqichida mahsulot tashqi shakli uzviyligi va yaxlitligini ta'minlash.			
11.	Zamonaviy ishlab chiqarishning bozor munosabati bilan uzviyligi.			
12.	Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi va pazandachilik asoslari yo'nalishlarida ishlab chiqarish va uning mohiyati			
13.	Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi va pazandachilik asoslari yo'nalishlarida ishlab chiqarish va uning mohiyati			
14.	Ishlab chiqarishni tayyorlashgaoid texnologik hujjatlar ro'yxati va ularning mazmuni			
15.	Ishlab chiqarishni tayyorlashgaoid texnologik hujjatlar ro'yxati va ularning mazmuni			
16.	Yog'ochga qo'lida ishlov berish asboblarini ishga			
17.	Yog'ochdan uy-ro'zg'or buyumlari yasash. Kichik ko'rinishdagi mebel to'plami: stul va stol, shkaf			
18.	Parmalash stanoklarining vazifasi, tuzilishi va ular bilan ishslash qoidalarini			
19.	Uy-ro'zg'or, turmushda va muktabda qo'llanilayotgan texnika va konstruksiyalash elementlari			
20.	Sovg'a uchun quticha (shkatulka) tayyorlash			
21.	Kitob javonini (kichik hajmda) tayyorlash			
22.	Yog'ochdan suvenir soat tayyorlash			
23.	Texnologik hujjatlarning yagona tizimi va uning			
24.	Mahsulot ishlab chiqarishni nazorat qilish, o'Ichash			

25.	Mahsulot ishlab chiqarishni nazorat qilish, o‘lchash			
26.	Olinadigan daromad va uni taqsimlash qoidalari			
27.	Ishlab chiqarish korxonasida mehnatni unumli tashkil etish, tejamkorlik va ishbilarmonlik asoslari			
28.	Mehnatni ilmiy tashkil etish. Tabiat muhofaza qilish va ishlab chiqarish.			
29.	Maktab atrofidagi ishlab chiqarish korxonalarida qo‘llanilayotgan ishlab chiqarish texnologiyalari,			
30.	Maktab atrofidagi ishlab chiqarish korxonalarida qo‘llanilayotgan ishlab chiqarish texnologiyalari, ularda shakllangan tejamkorlik tizimi, mehnat unumdoorligini hisoblash vaoshirish yo‘llarini o‘rganish.			
31.	Kasb tanlashga doir reja tuzish. Kasb tanlashdagi xatolar va qiyinchiliklar. Maktab o‘quvchilarining salomatligi va kasb tanlashga qo‘yiladigan talablar.			
32.	Kasbnito ‘g‘ritanlashningmohiyativa istiqboli. Kasbtanlashda shaxs, kasbiyqiziqish, moyillikvaqobiliyatlarinie’tiborgaolish. O‘smirvamuomalapsixologiyasi			
33.	Kasb tanlashdagi onglilik va mustaqillik. Yaxshi ko‘rish va sevgi tushunchalari			
34.	Kasbga yaroqlilikni belgilash va kasbga moyillikni tarbiyalash usullari. Ziddiyatlar va ularni hal etish yo‘llari			

Sana: “ ” 20 -yil. Sinflar: _____. To‘garak rahbari: _____

Mavzu: Xalq hunarmandlari tomonidan eksport va ichki bozor uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar.

Mashg‘ulotning maqsadi:

Ta‘limiy maqsad: O‘quvchilarga xalq hunarmandlari tomonidan eksport va ichki bozor uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar haqida ma’lumotlar berish.

Tarbiyaviy maqsad: O‘quvchilarni tozalikka, mehnatsevarlikka o‘rgatish. Turmushdagi ehtiyojlar va ulardan foydalanishni tushuntirish. Texnika xavfsizligi qoidalari, ish o‘rnini tashkil qilish qonun qoidalarni tushuntirish, sanitariya gigiyena talablariga to‘liq rioya etishni o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O‘quvchilar tasavvurida xalq hunarmandlari tomonidan eksport va ichki bozor uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar haqida bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilish.

Mashg‘ulot turi: Bilimlarni mustahkamlovchi. Yangi bilim beruvchi.

Mashg‘ulot uslubi: Tushuntirish, suxbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, ko‘rgazmali va boshqalar.

Mashg‘ulot metodi: guruhlarda ishlash, “Aqliy hujum”, “Kim epchil-u, kim chaqqon”, “Klaster”, “B/B/B” metodlaridan foydalaniladi.

Mashg‘ulotda jahozi: pazandachilik o‘quv xonasi, tikuvchilik ish qurollari va jixozlari, rasm va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar, test materiallari.

Mashg‘ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- a) Salomlashish
- b) Davomatni aniqlash
- c) Mashg‘uloga tayyorgarlik ko‘rish
- d) O‘quvchilar diqqatini Mashg‘uloga qaratish.

II. Uyga vazifani so‘rash:

- a) Savol – javob o‘tkazish
- b) Topshiriqlarni tekshirish

III. Yangi mavzu bayoni:

Hunarmandchilik, hunarmandlik — milliy-an'anaviy mayda tovar ishlab chiqarish, oddiy mehnat qurollari yordamida yakka tartibda va qo‘l mehnatiga asoslangan sanoat turi, shunday mahsulotlar tayyorlanadigan kasblarning umumiyligi nomi. Yirik ishlab chiqarish sanoati vujudga kelishiga qadar keng tarqalgan, ayrim sohalari keyin ham saklangandir. Hunarmandchilik kam rivojlangan mamlakatlarning xalq xo‘jaligida hozir ham muhim o‘rin egallaydi. Hunarmandchilik insonning ishlab chiqarish faoliyati bilan vujudga kelib, jamiyat rivojlanishi davomida asta-sekin dehqonchilik va chorvachilikdan ajralib chiqdi, turli ijtimoiy tarixiy davrlar doirasida texnika rivoji bilan aloqador holda takomillasha bordi, turli ixtisosliklar (kulollik, duradgorlik, temirchilik, misgarlik, binokorlik, toshtaroshlik, oymakorlik, kashtado‘zlik, ko‘nchilik, tikuvchilik, to‘quvchilik, zargarlik, zardo‘zlik, boyoqchilik, kemasozlik, tunukasozlik va boshqalar)ga ajraldi. Hunarmandchilik qanday tabiiy resurslarning mavjudligiga qarab, masalan, paxta va pilla bor yerda to‘qimachilik, sifatli xom ashyo bor yerda (masalan, Rishtonda) kulolchilik, jun va teri ko‘p yerda to‘qimachilik va ko‘nchilik, shunga

qarab kosibchilik, o‘rmonlar ko‘p yerda yog‘ochsozlik, ma’danlarga boy yerlarda metall ishlab chiqarish va temirchilik, dengiz va daryo boylarida kemasozlik va boshqalar rivoj topgan. Jamiyat taraqqiyoti bosqichlari mehnat taqsimoti bilan aloqador holda hunarmandchilikning uch turi shakllangan:

- 1) uy hunarmandchiligi;
- 2) buyurtma bilan mahsulot tayyorlaydigan hunarmandchilik;
- 3) bozor uchun mahsulot tayyorlaydigan hunarmandchilik.



Uy hunarmandchiligi ishlab chiqarishlar tashkil etilgunga qadar bo‘lgan davrlarda hunarmandchilikning eng ko‘p tarqalgan turi bo‘ldi. Hunarmandchilikning bu turi natural xo‘jalikning ajralmas qismi hisoblanadi. Shaharlar rivoji buyurtma bilan hunarmandchilik mahsulotlari tayyorlash va bozorga hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarishning jadal o‘sishi bilan uzviy bog‘liq. Natijada hunarmandchilik mahsulotlari tovarga aylandi, tovar ayirboshlash uchun ishlab chiqarildi. Davr taqozosi bilan hunarmandchilikning yangi-yangi turlari vujudga keldi. Hunarmandlar ham turli mahsulotlar tayyorlash boyicha ixtisoslasha bordilar. Shaharlardagi mahallalar hunarmandlarning kasbkoriga qarab shakllangan (masalan, XX asrning boshlarida Toshkentda ko‘nchilar, kulollar, egarchilar, beshikchilar, o‘qchilar, kosiblar mahallalari bo‘lgan). XX asrning boshlarida mashinalashgan ishlab chiqarish keng yo‘lga qoyilishi bilan hunarmandchilik mahsulotlarining tur tarkibi va ishlab chiqarish hajmi keskin kamaydi. XX asr oxiri va XXI asr boshlariga kelib yirik industrial ishlab chiqarish qaror topgan bo‘lsa-da, hunarmandchilikning mavqeい saqlanib qoldi. Mini texnologiyaning paydo bo‘lishi hunarmandchilikda tovarlarni yakka tartibda va sifatli ishlab chiqarish imkonini berdi. Bunga milliy ustboshlar, milliy cholg‘u asboblari, mayda asbob-uskunalar, turli yodgorlik buyumlari ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishni kiritish mumkin. Hozirgi hunarmandchilik kichik biznes tarkibidagi yakka mehnat faoliyati va oilaviy korxonalardan iborat. Rivojlangan mamlakatlarda yakka buyurtmalar va qimmatbaho badiiy buyumlar tayyorlaydigan hunarmandchilik sohalarigina (tikuvchilik, etikdo‘zlik, gilamchilik, zargarlik, oymakorlik va boshqalar) saqlanib qoldi. O‘zbekiston hududida neolit davridayoq hunarmandchilikning dastlabki muhim tarmog‘i hisoblangan sopol buyumlar ishlab chiqarish va to‘qimachilik vujudga keldi (Xorazm vohasidagi Kaltaminor madaniyati, Surxondaryodagi Sopollitepa va boshqalar). Miloddan avvalgi II asrdan boshlab hunarmandchilik mahsulotlari savdosida Buyuk ipak yo‘li muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. O‘rta asrlarda Sharq mamlakatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar (Arab xalifaligida po‘lat, O‘rta Osiyo va Hindistonda shoyi, chinni, qog‘oz) Yevropa bozorlarida qadrlandi. Hindistonda paxtadan nafis mato, Xitoya ipak mato to‘qiydigan dastgohlar vujudga keldi, Xitoy va O‘rta Osiyoda shisha tayyorlash texnologiyasi takomillasha bordi. IX-X asrlarda O‘rta Osiyoda yirik hunarmandchilik markazlari paydo bo‘ldi. Ip mato, gilam (Urganch, Shosh), shoyi (Marv), mis va temirdan yarog‘-aslaha, pichoq tayyorlash (Farg‘ona), shoyi matolar, shisha mahsulotlari tayyorlash (Buxoro) avj oldi. XIII asrda mo‘g‘ullar bosqini hunarmandchilik rivojiga zarba berdi. Temuriylar davlatining vujudga kelishi hunarmandchilik rivojiga juda katta ijobjiy ta’sir ko‘rsatdi. O‘rta Osiyoda hunarmandchilikning barcha turlari XX asrning 20-yillarigacha saqlandi. Buxoro, Samarqand, Qo‘qon, Xiva, Toshkent kabi shaharlarning ishlab chiqarish munosa- batlarida hunarmandlik katta rol oynadi (masalan, XIX asrning 60-yillarida Xivada hunarmandchilikning 27 turi rivoj topgan, shahardagi bozorlarda hunarmandlarning 556 do‘koni bo‘lgan, 80-yillarda shaharda 2528 xo‘jalik hunarmandchilik bilan shug‘ullangan). O‘zbekistondagi hunarmandchilik chuqur ixtisolashgan bo‘lib, o‘zida xilma-xil kasbkorlarni birlashtirgan. Masalan, terini qayta ishslash sohasida ko‘nchilar, etikdo‘zlar, maxsido‘zlar, kovushchilar, egar-jabduqchilar, telpakchilar, po‘stinchilar, kamarchilar; to‘qimachilik sohasida bo‘zchilar, atlaschilar, gilamchilar, sholcha va namatchilar; metallni ishslash sohasida temirchilar, taqachilar, misgarlar, chilangarlar, zargarlar kabi kasblar bo‘lgan. Bular hunarmandchilikning tarmoq strukturasini belgilangan. Sharqdagi musulmon ustaxonalarida bo‘lgani kabi O‘zbekistonda chevarlik, kashtachilik bilan ayollar uyda o‘tirib shug‘ullanishgan. Hunarmandchilikning ijtimoiy strukturasida usta, xalfa va shogird kabi ijtimoiy toifalar mavjud bo‘lgan. Hunarmandchilikning ichki tartib va qoidalarini uning nizomi sifatidagi "Risolalar" belgilab bergen. Har bir kasbning o‘z rahnamosi, ya’ni piri va "Risolasi" bo‘lgan, avloddan-avlodga o‘tuvchi odatlari va udumlariga rioya etilgan. Masalan, ish boshlashdan oldin usta o‘z pirini yodga olib undan madad so‘rash, shogirdiga fotiha berish kabi odatlarga amal qilingan. XX asrning 20 yillarida hunarmandlarning asosiy qismi dastlab artellarga, keyinchalik, zavod, fabrikalarga, badiiy buyumlar korxonalariga jalb qilindi. Ularga xom ashyo, material, asbob-uskunalar davlat tomonidan yetkazib beriladigan, yaratilgan mahsulotlar do‘konlardasotiladigan bo‘ldi. Iste’dodli hunarmandlar ijodiy tashkilotlarga qabul qilindi, amaliy bezak san’ati rivojlantirildi (masalan, 1930 yilda Toshkentda o‘quv-ishlab chiqarish kombinati tashkil etilib, yosh hunarmandlar unda ta’lim oldilar, 1968 yilda Buxoroda kandakorlar maktab ustaxonasi, 1978 yilda Qo‘qonda yog‘och oymakorligi maktab ustaxonasi tashkil topdi). O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng hunarmandchilik rivojida yangi davr boshlandi, xalq hunarmandchiligi bozor qoidalari zamirida qaytadan tiklandi. O‘zbekistonda mahalliy sanoat korxonalarining

birinchilar qatori xususiylashtirilishi natijasida mayda davlat korxonalari hunarmandlarning xususiy korxonalariga aylantirildi, yangi hunarmandchilik korxonalari ochildi. Hunarmandlar faqat ichki bozorga emas, balki eksportga ham ishlay boshladi. Hunarmandchilikning tashkiliy shakli ham o'zgardi: kichik oilaviy korxona, yakka tartibdagi mehnat faoliyati shaklida rivojlana bordi. 1995 yil 24—25 oktabrda Toshkentda BMTning O'zbekistondagi doimiy vakolatxonasi bilan amaliy hamkorlikda O'zbekiston xalq

ustalari va hunarmandlari 1-Respublika yarmarkasi o'tkazildi. 1997 yilda respublika xalq amaliy san'ati va hunarmandlari ustalarining "Usto" ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi tashkil topdi. Respublika Prezidentining 1997 yil 31 martidagi "Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini yanada rivojlanirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni va boshqa tadbirlar O'zbekistonda hunarmandchilikning tiklanishi va yanada rivojlanishida, uning unutilgan ba'zi turlarini qayta tiklashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Hunarmandlar dastlab O'zbekiston Tovar ishlab chiqaruvchilar palatasiga, so'ngra Savdo-sanoat palatasiga kirdilar. Ular maxsus tashkilot — "Hunarmand" Respublika uyushmasiga birlashtirildi. Hunarmand subyektlari O'zbekistonda tadbirkorlar, hunarmandlar va fermer xo'jaliklarining har yili o'tkaziladigan "Tashabbus" respublika ko'rik-tanlovida ishtirop etadilar.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. "Hunarmandchilik, hunarmandlik" tushunchalariga ta'rif bering.
2. Hunarmandchilikni qanday ixtisosliklarga ajratish mumkin?
3. Respublikamizda hunarmandchilikning qanday va nechta turi shakllangan?
4. Hunarmandchilik qachondan boshlab rivojlanishni boshlagan?
5. IX-XX asrlarda O'rta Osiyoda paydo bo'lgan yirik hunarmandchilik markazlari haqida ma'lumot bering.
6. O'zbekiston mustaqillikka erishgach hunarmandchilik sohalarida qanday o'zgarishlar bo'ldi?

V. Mashg'ulotni yakunlash va o'quvchilarni baholash. Kasbga yo'llash xonasini tartibga keltirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: mavzu bo'yicha berilgan barcha ma'lumotlarni o'qib-o'rganib kelish.

Maktab MMIBDO _____ sana _____ 20 yil

Sana: “ ” 20 -yil. Sinflar: _____. To‘garak rahbari: _____

Mavzu: Xalq hunarmandlari tomonidan eksport va ichki bozor uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar.

Mashg‘ulotning maqsadi:

Ta‘limiy maqsad: O‘quvchilarga xalq hunarmandlari tomonidan eksport va ichki bozor uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar haqida ma’lumotlar berish.

Tarbiyaviy maqsad: O‘quvchilarni tozalikka, mehnatsevarlikka o‘rgatish. Turmushdagi ehtiyojlar va ulardan foydalanishni tushuntirish. Texnika xavfsizligi qoidalari, ish o‘rnini tashkil qilish qonun qoidalarini tushuntirish, sanitariya gigiyena talablariga to‘liq rioya etishni o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O‘quvchilar tasavvurida xalq hunarmandlari tomonidan eksport va ichki bozor uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar haqida bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilish.

Mashg‘ulot turi: Bilimlarni mustahkamlovchi. Yangi bilim beruvchi.

Mashg‘ulot uslubi: Tushuntirish, suxbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, ko‘rgazmali va boshqalar.

Mashg‘ulot metodi: guruhlarda ishlash, “Aqliy hujum”, “Kim epchil-u, kim chaqqon”, “Klaster”, “B/B/B” metodlaridan foydalaniladi.

Mashg‘ulotda jichozi: pazandachilik o‘quv xonasi, tikuvchilik ish qurollari va jixozlari, rasm va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar, test materiallar.

Mashg‘ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- a) Salomlashish
- b) Davomatni aniqlash
- c) Mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘rish
- d) O‘quvchilar diqqatini Mashg‘ulotga qaratish.

II. Uyga vazifani so‘rash:

- a) Savol – javob o‘tkazish
- b) Topshiriqlarni tekshirish

III. Yangi mavzu bayoni:

II Mashg‘ulot: Xalq hunarmandlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar

Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan o‘tkazilayotgan “O‘zbekistonda ijtimoiy- iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va ahamiyati” mavzuidagi xalqaro konferensiya dasturi turli tadbirdarga boy bo‘lib, u jahonning o‘nlab davlatlaridan tashrif buyurgan ishbilarmon doira vakillari, xalqaro moliya tashkilotlari rahbarlari, iqtisodchi olim va mutaxassislar uchun yurtimiz erishgan yutuqlar bilan yaqindan tanishish imkonini yaratmoqda. Toshkent mustaqillik yillarda dunyoga yirik sanoat markazlaridan biri sifatida tanildi. Qariyb 120 ta davlat bilan tashqi iqtisodiy aloqalar olib bormoqda. Bu borada Respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan 110 ta yirik sanoat korxonasidan tashqari, 38 mingdan ortiq kichik biznes subyektlari samarali faoliyat ko‘rsatayapti. Har yili ko‘plab yangi zamonaviy ishlab chiqarishga quvvatlari foydalanishga topshirilishi evaziga mahsulot tayyorlash hajmi muttasil oshmoqda. 2012 yilning birinchi yarmida yalpi hududiy mahsulot 11,9 foizga o‘sib, unda kichik biznesning ulushi 57,1 foizni tashkil qildi. Tayyorlangan sanoat va xalq iste’moli mollarining esa 92 foizi nodavlat sektor ulushiga to‘g‘ri keldi. Ta’kidlash kerakki, xususiy sektor vakillari, asosan, sanoatning murakkab texnologiyalar talab etiladigan tarmoqlariga qo‘l urib, ichki bozorni import o‘rnini bosuvchi uy-ro‘zg‘or buyumlari, maishiy texnikalar, avtomobil ehtiyyot qismlari va butlovchi buyumlari, zamonaviy qurilish materiallari, to‘qimachilik va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlayapti hamda yuqori malakali tibbiy va servis xizmatlari ko‘rsatib kelmoqda. Kichik korxonalar tomonidan joriy yilning birinchi yarmida 563,6 million AQSH dollarlik mahsulot eksport qilingani buning yaqqol tasdig‘idir. Poytaxtimizdagi “Uztex Tashkent” mas’uliyati cheklangan jamiyati “Uztex” kompaniyalari guruhidagi taroqli va kardli dastgochlarda yigirilgan ip ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan korxonadir. Bundan tashqari, tizimdagи “Uztex Chirchiq” hamda “Eurotex Tashkent” korxonalari faoliyat yuritayotgan bo‘lib, ularda yuqori sifatlari trikotaj mato va kiyim-kechaklar tayyorlanadi. Bunday mahsulotlarga tashqi bozorda talab yuqori. Ularning asosiy qismi eksportga yo‘naltiriladi. Bugungi kunda “O‘zbekengilsanoat” davlat-aksiyadorlik kompaniyasi tarkibida 270 dan ziyod korxonalar faoliyat ko‘rsatayapti. Ular tomonidan iste’molchilarning talab va taklifi asosida ishlab chiqarilayotgan 600 xil rang, 20 dan ko‘proq nomdag‘i kiyim-kechaklar dunyoning 40 dan ortiq mamlakatlarida o‘z xaridorlariga ega. Agar 2000 yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 30 foizi kichik biznes sub’ektlari tomonidan ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2012 yil yakuniga kelib ushbu ko‘rsatkich 54,6 foizga yetdi. Uning sanoatdagi ulushi esa 22,2 foizni tashkil etdi. Eksport hajmining o‘sishi 11,6 foizga ta’minlanib, kichik biznesdagi uning ulushi 15,8 foizga yetdi. O‘zbekiston “Milliy tiklanish”



demokratik partiyasi Markaziy Kengashi va O‘zbekiston xalq ustalari, hunarmandlari va musavvirlari “Hunarmand” uyushmasi hamkorligida “O‘zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirishning huquqiy asoslar: muammo va yechimlar” masalalarini hal etilib kelinmoqda. Uyushma tarkibiga 22 ming nafar hunarmand birikkan bo‘lib, ular respublikamizning barcha hududlarida 25 yo‘nalishda 1000 dan ziyod mahsulot turlarini ishlab chiqarmoqdalar. Xalq ustalari va hunarmandlarining faoliyati tahlil qilinlar ekan, joylarda hunarmandchilik mahsulotlari ko‘rgazmasini tashkil etish, yoshlarga avloddan avlodga o‘tib kelayotgan milliy hunarlarni o‘rgatish, oilaviy tadbirdorlikni rivojlantirish va milliy bozorni hunarmandchilik mahsulotlari bilan ta’minlash yo‘lida samarali ishlarni olib borilayotganligi ta’kidlandi.“Hunarmand” uyushmalari tomonidan turli tanlov va ko‘rgazmalarda bir qator xalq hunarmandchiligi mahsulotlarini ishlab chiqarib ularni keng xalq ommasiga havola qilish bilan birgalikda, ma’lum miqdorda xalqning hunarmandchilik buyumlariga bo‘lgan ehtiyojlarini ham qondirmoqdalar. Bu buyumlarga quyidagilarni kiritish mumkin. Yog‘och oymakorligi - insondan nozik did, qunt va sabr-toqat talab etadi. Mohir ustalar mamlakatimizda tarixiy obidalarni ta’mirlash va tiklash, yangi barpo etilayotgan imoratlarni milliy me’morchilik an’analari ruhida bezatish ishlariga ham munosib hissa qo’shib kelmoqda. Mohir ustalar va ularning shogirdlari tomonidan yasalgan eshik va ustunlar, ayvon va toqilarga ishlangan naqshlar ko‘plab zamonaviy bino va inshootlarga katta ko‘rk, milliy ruh bag‘ishlab turibdi. Xalq hunarmandchiligiga oid naqshlarni, ganch oymakorligi, kashta va gilamlarda uchraydigan lolagul, bodom, qalampir nuxsalarini yog‘ochga muhrlanib ko‘rgazmalarda namoyish etilmoqda. Kashtachilik buyumlari yoshlarni mehnatga, sabr-toqatga, go‘zallik yaratishga da’vat qiladigan hunar hisoblanadi. Ko‘rgazmalarda dastro‘moldan tortib choyshabgacha, turli-tuman kashtachilik buyumlarini uchratish mumkin. Hatto festivalva ko‘rgazmalarga atab maxsus to‘qilgan so‘zanada yurtimiz kengliklari, Vatanimiz timsollari, milliy naqshlar ichida tasvirlangani barchani lol qoldiradi. Unda goyo yurtimizning tinchligi, gullab-yashnayotgani, milliy qadriyatlar ulug‘lanayotgani aks ettirilganday edi. Kashtachilik naqshlarining asosida har xil gul elementlari, geometrik bezaklar, qora, to‘q qizil, ko‘k, yashil, sariq, oq ranglar did bilan uyg‘unlashtirilib to‘qilgan bo‘lib, o‘ziga xos go‘zallik kasb etgan. Turli naqshli palak, choyshab, kelinchak yopinchiqlari, dasturxon, parda, dastro‘mol, nimcha, koylak va so‘zanalar an’anaviy badiiy san’atning go‘zal namunasi bo‘lib, qadimiy qadriyatlarimizni aks ettirib turardi.

Har yili o‘tkaziladigan ko‘rgazmalarda ko‘plab usta-hunarmandlarning ganchkorlik, naqqoshlik, yog‘och oymakorligi, kulolchilik, matoga gul chizish, zargarlik, savatchilik. gilamchilik kabi ishlari tomoshabinlar e’tiboriga havola etilgan. Shuningdek, turli sopol va chinni ko‘zachalar, naqshinkor qumg‘onlaru, atlas-adras koylak, chopon-do‘ppi kiygan milliy qo‘g‘irchoqlar ko‘zni quvontiradi. O‘zbek xonodon xo‘jaligining (tomorqa, issiqxona, dehqon xo‘jaligi, uy hunarmandligi turlarida) o‘z iste’molidan ortiqcha mahsulotlarning (go‘sht, sut, tuxum, kartoshka, sabzi va boshqalar) yoki xonodon daromadini oshirish maqsadida faqat bozor uchun ishlab chiqariladigan (beshikchilik, gulchilik, zardo‘zlik, nonvoylik, qandolatchilik va boshqalar) tovarlarning umum davlat hisobotini yuritish, shu orqali mamlakat miqyosida yalpi ichki mahsulotning real hajmini aniqlash, aholi farovonlik darajasini to‘liqroq baholash mumkinligini tashkil etilayotgan ko‘rgazma va festivallarda yaqqol sezilmoqda.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan yirik sanoat korxonasi va kichik biznes subyektlarining faoliyatni izohlab bering.
2. Respublikamizda eksport hajmi qanay oshib bormoqda?
3. Xalq ustalari va hunarmandlarining faoliyati tahlil qilib bering.
4. “Hunarmand” uyushmalari tomonidan turli tanlov va ko‘rgazmalarda qanday xalq hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarilmoqda?

V. Mashg‘ulotni yakunlash va o‘quvchilarini baholash. Kasbga yo‘llash xonasini tartibga keltirish.

VI. Uyga vazifani e’lon qilish: mavzu bo‘yicha berilgan barcha ma’lumotlarni o‘qib-o‘rganib kelish.

Sana: " " 20 -yil. Sinflar: _____. To‘garak rahbari: _____

Mavzu: Xalq hunarmandchiligidagi foydalanilayotgan nodir materiallar, asbob-uskunalar.

Mashg‘ulotning maqsadi:

Ta‘limiy maqsad: O‘quvchilarga xalq hunarmandchiligidagi foydalanilayotgan nodir materiallar, asbob-uskunalar haqida ma’lumotlar berish.

Tarbiyaviy maqsad: O‘quvchilarni tozalikka, mehnatsevarlikka o‘rgatish. Turmushdagi ehtiyojlar va ulardan foydalanishni tushuntirish. Texnika xavfsizligi qoidalari, ish o‘rnini tashkil qilish qonun qoidalari tushuntirish, sanitariya gigiyena talablariga to‘liq rioya etishni o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O‘quvchilar tasavvurida xalq hunarmandchiligidagi foydalanilayotgan nodir materiallar, asbob-uskunalar haqida bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilish.

Mashg‘ulot turi: Bilimlarni mustahkamlovchi. Yangi bilim beruvchi.

Mashg‘ulot uslubi: Tushuntirish, suxbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, ko‘rgazmali va boshqalar.

Mashg‘ulot metodi: guruhlarda ishslash, “Aqliy hujum”, “Kim epchil-u, kim chaqqon”, “Klaster”, “B/B/B” metodlaridan foydalaniladi.

Mashg‘ulotda johozi: pazandachilik o‘quv xonasasi, tikuvchilik ish qurollari va jixozlari, rasm va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar, test materiallari.

Mashg‘ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- a) Salomlashish
- b) Davomatni aniqlash
- c) Mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘rish
- d) O‘quvchilar diqqatini Mashg‘ulotga qaratish.

II. Uyga vazifani so‘rash:

- a) Savol – javob o‘tkazish
- b) Topshiriqlarni tekshirish

III. Yangi mavzu bayoni:

Xalq hunarmandchiligidagi ishlataladigan materiallar va asbob-uskunalar.

Servis xizmati yo‘nalishida ta‘lim olayotgan o‘quvchilarga kashtachilik, zardo‘zlik hunarlari o‘rgatilishi e’tiborga olinadi. Quyida shu hunarlarni o‘rganishda kerak bo‘ladigan materiallar va asbob-uskunalar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Kashtachilikda qo‘llaniladigan jihoz hamda moslamar. Kashta kiyimlar va buyumlarni bezashda katta ahamiyatga egadir. Kashta tikishni bilish orqali kiyimlarni yangilab olish, ko‘pgina kerakli buyumlarni: salfetkalar, panno, fartuk, yostiq jildlarini, yaqin kishilarga beradigan sovg‘alarni bezash va tayyorlash mumkin. Qo‘lda kashta tikish uchun juda oddiy asboblar kerak bo‘ladi. Bular: igna, angishvona, qaychi, santimetr tasmasi, o‘tkir uchli dukcha, gardish, bundan tashqari, millimetrlangan qog‘oz, kalka, ko‘chirish rangli qog‘izi. Kashta tikish uchun cho‘ziqroq ko‘zli kalta (1 va 2 raqamli kashta tikadigan) ignalar kerak bo‘ladi. Ignalarning ko‘zi katta bo‘lsa, bir necha qavat ipni o‘tkazish oson bo‘ladi. Ipni o‘tkazish uchun sotuvdaggi ignalar komplektidagi ip o‘tkazgichdan foydalanish mumkin. Buyumlarni biriktirib ko‘klassh uchun 1



va 3 raqamli ignalarni ishlatish qulayroq. Kashta tikish jarayonida ignani gazlamadan o‘tkazish uchun angishvona kerak bo‘ladi. U barmoqqa igna kirishdan saqlaydi. Angishvona o‘ng qo‘lning o‘rta barmog‘iga taqiladi, uni barmoqning yo‘g‘onligiga qarab tanlanadi. Ishlash uchun uch xil qaychilar kerak bo‘ladi, ya’ni uchi ingichka kichkina qaychi – gazlamadagi ipni qirqish va tortib tashlash uchun; uchi qayrilgan o‘rtacha kattalikdagi qaychi – kashta tikayotganda ip uchini qirqish uchun; katta qaychi – gazlama va kalava iplarni qirqish uchun ishlatiladi. Qaychilar yaxshi charxlangan, tig‘larining uchi to‘la yopiladigan bo‘lishi kerak. Santimetr tasma tikish ishlarida buyum o‘lchamlarini aniqlashda, gazlamaga bezakni rejalashtirib joylashtirishda, kashta tikish ishlarini bajarishda foydalaniladi. Uchli dukcha (suyakdan, yog‘ochdan yoki plastmassadan tayyorlanadi) oq tekis chokli kashta tikishda teshikchalar hosil qilish uchun ishlatiladi (2-rasm). Dukcha diametri taxminan 5 mm, uzunligi 6-8 sm bo‘lishi lozim. Gardishlar gazlamani tarang tortib turish va deformasiyalanishdan saqlash uchun ishlatiladi. Gardishlar to‘g‘ri burchakli yoki doira shaklida bo‘ladi. Doira shaklidagi yog‘och gardish juda qulay. Gardishlar diametri 20-40 sm li ikkita gardishdan iborat bo‘lib, bir-birini ichiga tushib turadi. Hozirgi vaqtda turli-tuman gardishlar mavjud bo‘lib, ularga gazlamani kiydirishda maxsus burama joyidan foydalanish mumkin, ya’ni gardish buramasini bo‘shatib katta va kichik gardishlar ajratib olinadi, kichik gardishga gazlama tortilib katta gardishga kiydirladi va burama mahkamlanib qoyiladi. Millimetrli qog‘oz naqshlar, ayniqsa geometrik, sanama naqshlar tuzishda kerak bo‘ladi. Kashta gulini gazlamaga ko‘chirishga tayyorlashda kalka ishlatiladi. Gul avval asl nusxdan kalkaga, so‘ngra kalkadan gazlamaga ko‘chiriladi. Kashta gulni gazlamaga ko‘chirish uchun ko‘chirish rangli qog‘izi ham ishlatiladi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Qo‘lda kashta tikish uchun qanday asboblar kerak bo‘ladi?
2. Kashta tikish uchun qanday ignalar tanlanadi va ulardan qanday foydalaniladi?
3. Kashta tikishda nima uchun qaychi turlaridan to‘g‘ri foydalanish talab etiladi?
4. Kashta tikishda uchli dukcha va gardishlardan foydalanish yo‘llarini aytib bering.

V. Mashg‘ulotni yakunlash va o‘quvchilarni baholash. Kasbga yo‘llash xonasini tartibga keltirish.

veb-saytimiz: Zokirjon.com
Hujjat Word variantda beriladi.
Zokirjon Admin bilan

**90-530-00-68 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz yoki nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.
Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi**

**Texnologiya fanidan 9-sinf o‘quvchilarga
34 soatli to‘garakni to‘liq holda olish uchun
telegramdan yozing.**



Narxi: 20 ming so‘m

Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

**To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#
Plastik egasi Nabiiev Zokirjon**



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**